

126. Unumdorlikka doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
quvurlar va nasoslar.

Formula, unumdorlik,
miqdor, ish hajmi.



1. Quvurdan 1 minutda 6 litr suv oqib chiqadi. 2 minutda qancha suv oqib chiqadi? 3 minutda-chi? 4 minutda-chi? 5 minutda-chi?



2. Tomchilab turgan jo'mrakdan 1 soatda 10 litr suv oqib chiqadi.
Shu jo'mrakdan 2 soatda necha litr suv oqib chiqadi? 3 soatda-chi?
4 soatda-chi? t soatda-chi?


Vaqt, t	1	2	3	4	5	6	t
Tomchilayotgan suv miqdori, A							

Unumdorlikka doir masalalarda ucta kattalikka duch kelamiz.

Unumdorlik, odatda, w harfi bilan belgilanadi.

Vaqt, odatda, t harfi bilan belgilanadi.

Umumi ish hajmi, odatda, A harfi bilan belgilanadi.



Ish hajmi formulasi:

$$A = w \cdot t$$

$$w = A : t$$

$$t = A : w$$

126. Unumdorlikka doir masalalar yechish



3. Ish hajmini hisoblash formulasidan foydalanib, noma'lum kattaliklarni toping.

w	t	A
3m/h	7 h	?
?	8 min	320 cm ²
36l/h	?	72l



4. Ish hajmi formulasidan foydalanib, ifodalarni yozing. Noma'lum kattaliklarni toping.

- a) Printer 10 minutda 180 sahifani chop etdi. Printering ish unumdorligi qanday?
- b) Operator kompyuterda minutiga 320 belgi tezlikda matn teradi. U 4800 belgidan iborat hikoyani qancha vaqtida teradi?
- c) Dastgohning unumdorligi soatiga 8 detal. Dastgoh 24 soatda nechta detal ishlab chiqaradi?



5. Basseynga 1 minutda 10 litr suv quyiladi. Basseynning hajmi 30 m^2 . Bu basseynni to'ldirish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?



6. Ikki brigada bir-biriga tomon gaz quvuri yotqizib kelmoqda. Birinchi brigada kuniga 270m, ikkinchi brigada esa 290m quvur yotqizmoqda. Besh kunlik ish haftasida ikki brigada birgalikda necha metr quvur yotqizadi?

	w	t	A
I brigada	270m/kun	5 kun	?
II brigada	290m/kun	5 kun	?

?

126. Unum dorlikka doir masalalar yechish



7. Simmetrik shakllarni toping. Ulardan qaysilari bir nechta simmetriya o'qiga ega?



8. Daftaringizga shakllarni katakchalar bo'yicha yasang. Ularning yuzini kataklar va kvadrat santimetrlarda toping.



9. Temir quvurni ikkiga bo'lish uchun 8 000 so'm to'lash kerak. Quvurni 64 bo'lakka bo'lish uchun qancha pul to'lash kerak bo'ladi? Buning uchun pul to'lashning eng kichik miqdori qancha?



10. Qulay usulda hisoblang.

$$1 \text{ dm}^3 240 \text{ cm}^3 + 7 \text{ dm}^3 812 \text{ cm}^3 - 3 \text{ dm}^3 904 \text{ cm}^3$$

$$5 \text{ m}^3 29 \text{ dm}^3 - 4 \text{ m}^3 452 \text{ dm}^3 + 4 \text{ m}^3 457 \text{ dm}^3$$



11. Birinchi quvur orqali minutiga 7 litr, ikkinchi quvur orqali esa minutiga 9 litr suv quyiladi. Har bir quvur alohida 630 litr hajmli akvariumni qancha vaqtida to'ldiradi?